

## TO'LIQ VA NOTO'LIQ OILALAR BILAN IJTIMOIY ISH OLIB BORISH

*Suyarova Dilfuza Sa'dullo qizi*

*Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali.*

*Aniq va tabiiy fanlar fakulteti 'Ijtimoiy ish' yo'nalishi talabasi*

*Ilmiy rahbar: Ishmuradov Bunyodjon Farhodovich*

*Davlat Universiteti Kattaqo'rg'on filiali o'qituvchisi*

*Maslahatchi: Abbasova Maftuna Subhonovna*

*Davlat Universiteti Kattaqo'rg'on filiali o'qituvchisi*

**Annotation:** Ushbu maqolada oila tushunchasi, asosiy xususiyatlari, oilaning turlari, mazmun va mohiyati, oilaning jamiyat hayotidagi o'rni, oilalarini o'rganishda yaxlit bir tizim sifatidagi qarashlar o'rganilib, tahlil qilingan. Shuningdek oiladagi munosabatlar, konfliktlarni o'rganib muammo uchun yechimlar ham ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** Oila, to'liq oila, noto'liq oila, ota-on, M.Davletshin, X.karimov, farzand, qadriyat, an'ana, psixologiya, ijtimoiy ish xodimi, Avesto, Kaykovus,.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается и анализируется понятие семьи, ее основные характеристики, виды семьи, содержание и сущность, роль семьи в жизни общества, взгляды на изучение семьи как целостной системы. Также рассматриваются решения проблемы путем изучения взаимоотношений, конфликтов в семье.

**Ключевые слова:** семья, полная семья, неполная семья, родитель, М.Давлетшин, Х.Каримов, ребенок, ценность, традиция, психология, работник социальной работы, Авесто, Кайковус.

**Abstract:** This article examines and analyzes the concept of the family, its main characteristics, types of family, content and essence, the role of the family in society, views on the study of the family as an integral system. Solutions to the problem are also considered by studying relationships, conflicts in the family

**Keywords:** family, full family, incomplete family, M.Davletshin, X.karimov parent, child, value, tradition, psychology, social worker Avesto, Kaykovus,.

Oila bu jamiyatning eng asosiy va qadimiy ijtimoiy institutlaridan biri. Oila, bиринчи navbatda, odamlarning bir-birlariga bo'lgan munosabatlari, bиргаликда yashash va farzandlar tarbiyasi uchun yaratilgan kichik ijtimoiy guruhdir. Oila ijtimoiy va iqtisodiy vazifalarni bajaradi, shuningdek, a'zolarining emotsional va psixologik ehtiyojlarini qondiradi. Oila odatda ota, ona va farzandlardan iborat bo'lib, ayrim hollarda bobo, buvi yoki boshqa qarindoshlar oilaning bir qismi bo'lishi mumkin. Oila, farzandlarni tarbiyalash, ularga axloqiy, ma'naviy va ijtimoiy qadriyatlarni o'rgatishda

asosiy rol o'ynaydi. Oila, jamiyatning asosiy hujayrasi bo'lib, ijtimoiy munosabatlar va ijtimoiy institutlar rivojlanishiga ta'sir qiladi. Oila orqali jamiyatda an'analar, qadriyatlar va madaniyat saqlanadi va yangi avlodga o'tkaziladi.

Oila ikki turga bo'linadi: to'liq oila va noto'liq oila. To'liq oila - bu ota, ona va farzandlardan iborat bo'lib, oilada bolalar ikki ota-onada tomonidan tarbiyalanadi. Ota va ona oilaning boshqaruvini, farzand tarbiyasini va birgalikda moddiy va ma'naviy resurslarini ta'minlaydi.

Ota-onada oilaviy qarorlarni birgalikda qabul qiladi, bu esa bolalarning farovonligi kelajakdagi hayoti uchun muhim hisoblanadi. Negaki oilada farzandning sog'lom va yetuk bo'lishi uchun ota-onada ma'sul shaxs hisoblanadi. Bolalar ota-onalarining borligi va ularning ko'magi sababli o'zlarini ko'proq xavfsizlik his qilishadi. To'liq oilada bolalar ko'proq ijtimoiy, psixologik va iqtisodiy qo'llab-quvvatlashga ega bo'lishadi. Bir-biriga bo'lgan ishonch, hurmat, bir-birini qo'llab quvvatlash holatlari mavjud bo'ladi.

Noto'liq oilalar esa faqat bitta ota-onada iborat oiladir. Bu holat, ota-onaning ajrashishi, vafoti yoki boshqa sabablar tufayli yuzaga kelishi mumkin. Noto'liq oilada farzand faqatbitta ota yoki ona tarbiyalaydi. Bu esa ko'pincha majburiyat va ma'suliyat talab etadi. Farzandning bitta shaxs tomonidan tarbiyalanishi uning kelajakda ota yoki ona mehrisiz kata bo'lishiga sabab bo'aldi. Bitta ota yoki ona uchun oilani iqtisodiy qo'llab-quvvatlash ko'proq qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Oila tashvishi tufayli bitta ota yoki ona farzand tarbiyasiga ko'p hollarda vaqt ajrata olmaslik holatlari bo'ladi.

Noto'liq oilalar jamiyat tomonidan turli xil qarashlarga duch kelishi mumkin, bu esa ota-onada va bolalarga qo'shimcha bosim olib kelishi mumkin. Bolaning ko'cha ko'yda kansitilishi. Unga atrof muhit yoki turli shaxslar tomonida unga bo'lgan turli xil munosalabatlar bolaning harakteriga ta'sir qilishi va umidsiz bo'lib voyaga yetishiga sababchi bo'lishi, shu bilan jamiyatdan uzilib qolishi mumkin.

Oila va uning a'zolari o'rtasida sodir bo'layotgan murakkab munosabatlar haqida ko'plab olimlar o'z qarashlarini bayon etgan, shu qatorda, O'zbekistonlik olimlar: M.Davletshin, B.Qodirov, X.Karimov, N.Sog'inovlar tomonidan oila mavzusi o'rganilgan. Ularda asosan o'zbek oilasiga xos urf-odatlar, an'analar va udumlar nuqtai nazaridan oilaviy munosabatlarni tadqiq etilgan. Oila institutini ijtimoiy voqelik sifatida uning qonuniyatlarini tahlil etar ekanmiz, bu o'rinda biz oilaviy o'zaro munosabatlarga xos bo'lgan munosabatining psixologik tabiatdan kelib chiqishi, va dinamikasiga e'tiborni qaratgan ko'plab tadqiqotlada ilgari surilgan ma'lumotlar o'rnida aytib o'tishimiz kerak deb bildik. Oila muhitini, barkamol avlod va komil insonni tarbiyalash muommosi turkiy xalqlarning mushtarak yodgorligi-Avesto, shuningdek, Abu Nasr Farobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, tortib hozirgi zamon pedagoglarining o'ziga xos fikr mulohazalar

bildirgan.Kaykovus, S.Sheroziy, Jomiy, Alisher Navoiy, A.Fitrat, A.Avloniy kabi, mutafakkirlarimizning ilmiy nazariy asarlarida oila munosabatlaridagi tarbiya tarixiylik nuqtai nazaridan bayon etilganligi alohida ahamiyat kasb etadi. Oilaviy ziddiyatlar. Afsuski, zamонавиј ѡамиятда oilaviy nizolar dolzARB mavzudir. Har qanday oila o‘z hayoti davomida muommoli vaziyatlarga duch keladi. Ularni hal qilish qarama qarshi individual ehtiyojlar, motivlar, manfaatlar, sharoitida amalga oshiriladi. Oilaviy nizolar quyidagilarga bo‘linadi: er xotinlar, ota onalar, bolalar, er xotinlarning ota onasi, bobo buvilari, va nevaralar. Oilaviy munosabatlarda asosiy rolni nikohdagi nizolar egallaydi. Nikohdagi nizolarning paydo bo‘lishiga tashqi omillar sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ko‘plab oilalarning moliyaviy ahvolining yomonlashuvi, turmush o‘rtog‘laridan birini yoki ikkalasining ortiqcha ish bilan bandligi, ularning bittasi normal ishlamasligi, ularning birini uyda uzoq vaqt yo‘qligi, bolalarni bolalar muassasalarga yoki boshqa muassasalarga joylashtirish imkonni yo‘qligi va boshqalar. Kundalik hayotda eng ko‘p uchraydigan muommolardan biri ota onalar va bolalar o‘rtasidagi nizolar ham bo‘lishi mumkin. Bola ko‘pincha ota onasidan birining yo‘qligi haqida tengdoshlarining bosimini boshdan kechiradi. Bu uning, neyroskopik holatiga ta’sir qiladi. Bu esa bolada deviant xulq atvorga ega bo‘lgan o‘smirlar soni ortib bormoqda, jinoyatchilik ko‘paymoda. Oiladagi janjallarni hal qilishda muommolardan qochmaslik, balki ularni hal qilish kerak. G‘alaba qozonish yoki himoyalanish uchun emas balki hal qilish maqsadi bilan konstruktiv ova xotirjam muloqot qilish lozim. Bahsga uchinchi tomonlarni jalb qilish tavsiya etilmaydi, chunki ular majoronimg yanada kuchayishiga sabab bo‘lishi mumkin

Ijtimoiy ish xodimlari oilalar bilan ishlashda muhim rol o‘ynaydilar. Ular oilalarga maslahatlar berish, moddiy yordam ko‘rsatish, bolalar tarbiyasida ko‘maklashish va ijtimoiy xizmatlarni ta’minlash orqali ularning hayotini barqarorlashtirishga yordam beradilar. To’liq oilalarda ijtimoiy ish xodimlari oila a’zolari o‘rtasidagi munosabatlarni yaxshilash va oilaning farovonligini ta’minlashda ko‘maklashadi. Noto’liq oilalarda esa, ular yolg’iz ota yoki onaga yordam ko‘rsatish, bolalarga psixologik yordam berish va moddiy qo’llab-quvvatlashni tashkil etishda muhim ahamiyatga ega. Oila a’zolariga kerakli bilim va ko’nikmalarni o’rgatish orqali ularni mustahkamlash.

### Xulosa

Oilalarni qo’llab-quvvatlash har tomonlama bo‘lishi kerak. Ayniqsa noto’liq oilalarni. Ularga:

- \*ota-onani ish topishida bandlik xizmatidan yordam ko‘rsatish.
- \* tibbiy ko‘rikdan o’tib turishiga yordam berish va nazorat qilish.
- \* ta’lim uchun imtiyozli yordam berish.
- \* pensiyalar, nafaqalar, alimentlar olishda yordam berish.

\* boshqa to'liq bo'limgan oilalar bilan muloqot qilish, tajriba almashish, qo'llab-quvvatlash, birgalikda dam olish, o'zaro yordam berish.

Oilaning o'zi faoliyatiga katta rol beriladi. Siz o'z huquqlaringizni bilishingiz, qonunchilik bazasi bilan tanishishingiz, ijtimoiy xizmatga murojaat qilishingiz kerak. To'liq bo'limgan oilalar uchun asosiy yordam har bir shaharda mavjud, buning uchun siz psixolog yoki boshqa mutaxassis bilan pulli maslahatlashuvlarda qatnashishingiz shart emas. Shu bilan birga, to'liq bo'limgan oila maqomini qabul qilish va tasdiqlash, huquqlarni himoya qilish bir qator muammolarni hal qilishi mumkin. Ijtimoiy xodimlar bilan bog'lanish, muammolar va qiyinchiliklarni tasvirlash, yordam so'rash kifoya - ular rahbarlik qiladi, muvofiqlashtiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. L.I.Buyanov. Disfunktsiyali oiladan chiqqan bola.
2. To'liq bo'limgan oilada bolalarni tarbiyalash.M., 1985  
B.5. <https://www.google.com/url?sa=t&source=web&rct=j&opi=89978449&url=https://cyberleninka.ru>
3. <https://www.google.com/url?sa=t&source=web&rct=j&opi=89978449&url=https://uz.wikipedia.org/wiki>
4. <https://www.google.com/url?sa=t&source=web&rct=j&opi=89978449&url=https://cyberleninka.ru>
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/noto-liq-oilada-bolalarni-tarbiyalashning-psixologik-muammolari>